

PUBLITSISTIK MATNLARDA STILISTIK VOSITALARNING (O'XSHATISH VA MUBOLAG'ANING) FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Gafurova Gulruh Baxtiyarovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Filologiya fakulteti Katta o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18677247>

Mazkur maqolada publitsistik matnlarda stilistik vositalarning, xususan o'xshatish va mubolag'aning funksional-semantik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari orqali keng auditoriyaga ta'sir ko'rsatishga xizmat qilgani sababli unda obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallik muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'xshatish publitsistik matnlarda muayyan voqelikni yanada aniqroq, yorqinroq tasvirlash hamda o'quvchida obrazli tasavvur hosil qilish vazifasini bajaradi. U muallifning individual munosabatini ifodalash, matnning ta'sirchanligini oshirish va axborotning tezroq qabul qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek publitsistik matnlarida o'xshatishlar milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Mubolag'a (giperbola) esa publitsistik nutqda fikrni kuchaytirish, muammoning dolzarbligini ta'kidlash va auditoriya e'tiborini jalb qilishning samarali vositasi hisoblanadi. U real voqelikni ongli ravishda bo'rttirish orqali o'quvchining hissiy reaksiyasini faollashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mubolag'aning takroriy qo'llanishi ayrim hollarda uning stilistik kuchini pasaytirishi mumkin, biroq kontekstual qo'llanishda u yuqori ekspressiv samara beradi. Publitsistik matnlarda omma e'tiborini o'ziga qaratish funksiyani bajaradigan stilistik usullardan yana biri mubolag'adir. O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, "Tasvirlanayotgan yoki ta'riflanayotgan kimsa, narsa, hodisa va shu kabilarni o'quvchilarga yaqqol, ta'sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini orttirib, bo'rttirib ko'rsatish; shu maqsadda ishlatilgan so'z, iboralar giperbola hisoblanadi. L. Boboxonovanning mubolag'a haqida izohiga ko'ra, "Mubolag'a bo'rttirish badiiy uslubi bo'lib, amalga oshiriladigan imkoniyatlar nuqtai nazaridan u shubhali haqiqatga yaqin bo'lmagan ya'ni aql bovor qilmaydigan holatni ifodalab keladi. o'zlovchining hayajonga soladigan holat bilan mubolag'ani adashtirib yubormaslik kerak. Misol qilib aytadigan bo'lsak, osmonga *ustun bo'larmidin, osmondan kelmoq* kabi iboralar stilistik uslub emas balki oddiy bo'rttirish hisoblanadi. Nutqdagi yozuvchilarning asarlarida mubolag'alar inson uchun zarur bo'lgan narsalarni ifodalaydigan tushunchalarni qo'llanilishiga asoslanadi"¹.

F. Myroslavaning mubolag'a haqidagi ta'rifiga ko'ra, "Giperbola - biror obyektning xususiyatini haddan tashqari oshirib yuborish yoki bo'rttirib ko'rsatish bo'lib, undan ko'zlangan maqsad esa tasvirlanayotgan obyektни aqlga sig'mas darajada kuchaytirishdan iboratdir. Ko'pgina stilistik vositalar singari, giperbola ham tez-tez takrorlash natijasida stilistik vosita sifatida o'z xususiyatini yo'qotishi va tizim sifatida tilning nutqdagi o'zgarmas shakli ko'rinishida bir birlik shakliga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, giperbola - bu o'quvchining nutqni mantiqiy baholash qobiliyatini kuchaytirishga yordam beruvchi vosita ham hisoblanadi"².

¹ Бобохонова Л. Инглиз тили стилистикаси "Ўқитувчи" нашриёти, 1995 й 77-бет

² Myroslava Fabian STYLISTICS: THEORY AND PRACTICE PAVOL JOZEF ŠAFÁRIK UNIVERSITY IN KOŠICE 2021. 99 pages. p19

Mubolag'a tilning shunday ko'chma ma'noli birligiki, bunda so'zlovchi bir so'zni ishlatib, boshqa ma'noni nazarda tutadi³. Boshqa so'z bilan aytganda, aytilgan so'zning lug'aviy ma'nosi uning nutqdagi ma'nosi bilan bir xil bo'lmaydi. Mubolag'ani ishlatayotganimizda, so'zlovchi bir tushunchaning aynan o'zini aytmasdan, uning ma'nosini yanada kuchaytiradigan boshqa bir narsani aytadi⁴. Yuqorida mubolag'aning tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan mulohazalaridan shuni aniqlashimiz mumkinki, publitsistik matnlarda mubolag'aning qo'llanishidan asosiy maqsad ko'tarilgan ifodalanayotgan fikrni bo'rttirish orqali o'quvchini o'ziga jalb etish hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Quyida ingliz tilidagi publitsistik matnlarda mubolag'a stilistik vositasini qo'llanishi va uni tarjimada qayta ifodalanish masalasini ko'rib chiqamiz.

*Every single day I will be fighting for you, and with every breath in my body, I will not rest until we have delivered the strong, safe and prosperous America that our children deserve and that you deserve*⁵. The Economic Times ommaviy axborot vositasida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu nutq Amerika qo'shma shtatlari prezidenti Donald Trampga tegishli bo'lib, ushbu ma'ruzani Amerika davlatiga qayta prezident bo'lganida so'zlagan nutqida aytib o'tgan. Unga ko'ra, Donald Tramp o'z xalqiga va'da qilib aytadiki, har bir kunda, har bir nafasida o'zini xalqi uchun kurashishi, ularning farzandlari va xalqiga mos bo'lgan Amerika kuchli, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan boylikka erishmagunicha tinib-tinchimasligi haqida ta'kidlab o'tadi. Ushbu publitsistik matnda Tramp tomonidan bir qator stilistik vositalar matning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Ulardan birini misol qilib keltiradigan bo'lsak, *“Every single day I will be fighting for you, and with every breath in my body”* jumlasini ko'chma ma'no hosil qilib mubolag'a stilistik vositasi orqali ifodalanmoqda. Chunki Tramp har bir nafasida sizlar uchun kurashaman, deya ta'kidlagan. Lekin hammamizga ma'lumki, har bir nafasda kurashish imkon yo'q vaziyat hisoblanadi. Tramp ushbu jumla orqali xalqi uchun sadoqat bilan xizmat qilishi, qo'lidan keladigan barcha imkoniyat va chora-tadbirlarini qo'llash haqida bayon qilmoqchi bo'lgan. Ushbu nutqda mubolag'a stilistik vositasini qo'llash orqali Trampning nutqi yana ham ta'sirchanligi oshgan va natijada ommaning qiziqishiga sabab bo'lgan desak, yangilashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari ushbu nutqda stilistik inversiya hodisasi ham ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. *“Every single day”* birikmasi gapning boshida kelib, stilistik inversiya hodisasi yasallishiga asos bo'lmoqda. Ushbu birikma gapning boshida kelishini yana bir sababi, takidlab o'tish va ma'no kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda.

*Har kuni siz uchun kurashaman. Kuchli, xavfsiz va farovon Amerikani qurmagunimizcha tinchimayman, bolalarimiz va sizlar bunga munosibsiz*⁶.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan publitsistik matnimizning kun.uz saytida berilgan o'zbek tilidagi tarjima varianti ham aslyat matniga mazmunan mos keladi. Ikki tilda berilgan publitsistik matning mazmunida Trampning xalqi uchun uning farovon hayoti uchun qo'lidan kelgancha harakat qilishi ifodalab berilmoqda. Biroq tarjimadagi ma'nodorlik va bo'yoqdorlik aslyat matniga monand bo'lmagan. Bu esa o'z navbatida omma bu ma'lumotga yuzaki qarashiga va

³ Stern, J. (2000). *Metaphor in Context*. London: MIT Press.

⁴ Claridge, C. (2010). *Hyperbole in English: a corpus-based study of exaggeration*. Cambridge, UK: Cambridge University Press

⁵ The Economic Times, Nov 06, 2024, 11:48:00 PM IST

⁶ <https://kun.uz/news/2024/11/06/tramp-ozini-yangi-prezident-deb-elon-qildi>.

qiziqishi sezilarli darajada ifodalanmasligiga olib keladi. Asliyat matnida ifodalangan mubolag'a stilistik vositasi tarjima matnida berilmagan bo'lsa ham, tarjima variantida stilistik inversiya asliyat matni bilan bir hil shaklda ya'ni "*har kuni*" so'zi jumlaning boshida qo'llanilgan. Aslida esa tarjima quyidagicha ko'rinishda bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi: *Men har kuni siz uchun kurashaman va tanamdagi har bir nafasimda siz va farzandlaringizga munosib bo'lgan kuchli, xavfsiz va gullab-yashnayotgan Amerikani yaratmaganumcha tinchlanmayman*. Mazkur tarjima matnida esa asliyat matnidagi mubolag'a va stilistik inversiya xosil qilgan stilistik tasir tarjima matnida ham qayta ifodalanmoqda.

Mubolag'a publitsistik matnlarda qo'llashdan maqsad obyektning xususiyatini haddan tashqari oshirib yuborish yoki bo'rttirib ko'rsatish bo'lib, undan ko'zlangan maqsad esa tasvirlanayotgan obyektni aqlga sig'mas darajada kuchaytirishdan iborat bo'lib, ushbu stilistik vosita so'zma-so'z tarjima, dinamik va shakily ekvivalentlik tarjima usullari orqali tarjima qilinishi aniqlandi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – 256 б.
2. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка (English Stylistics). – М.: Высшая школа, 1981. – 334 с.
3. Myroslava Fabian Stylistics: theory and practice pavol jozef šafárik university in košice 2021. 99 pages. p19
4. Fairclough N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995. – 214 p.
5. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
6. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1969. – 218 p.
7. Stern, J. (2000). Metaphor in Context. London: MIT Press.
8. Claridge, C. (2010). Hyperbole in English: a corpus-based study of exaggeration. Cambridge, UK: Cambridge University Press